

Go'zal va betakrorimsan,
muqaddas Vatanim, jonim
senga fido, O'zbekistonim!

RAQAMLAR
SO'ZLAGANDA...

«Bilimlar bellashuvi – 2016» 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida 16 ta fan bo'yicha tashkil etildi. Unda 2 milliondan ortiq o'quvchilar maktab, tuman, viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etib, eng bilimdon, eng qobiliyatli, eng iqtidorli o'g'il-qizlar respublika bosqichiga yetib keldi.



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

«Bilimlar bellashuvi – 2016»



ZAKOVATLI YOSHLAR – YURT TAYANCHI



«Bilimlar bellashuvi – 2016»ning mamlakat bosqichi R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida boshlandi.

O'quvchilar 16-17-iyun kunlari aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar yo'nalishida bellashdilar. Joriy yilning 29-30-iyunida esa yosh bilimdonlar filologiya fanlari bo'yicha o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

(Davomi 3-betda)



Bizga maktub yo'llabsiz...

Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyida

«HECH KIM MEHR VA E'TIBORDAN CHETDA QOLMASIN»

shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbir doirasida tarbiyalanayotgan 136 nafar o'g'il-qiz elimizning taniqli san'atkorlari bilan yaqindan tanishib, mazmunli suhbatlashishdi.

Bolajonlar Ozodbek Nazarbekov, Abdurashid Yo'ldoshev, Yahyobek Mo'minov, Adham Soliyev, Malika Egamberdiyeva ijrosidagi sho'x, dilrabo qo'shiqlarga raqsga tushdilar. O'z navbatida, Mehribonlik uyining «Dilbandim» dastasi a'zolari mehmonlarga baxtli bolalik, Vatani, Istiqlol, do'stlik haqidagi qo'shiqlar, sho'x raqslarni ijro etishdi.

Tadbir nihoyasida san'atkorlar bolajonlarga esdalik sovg'alari taqdim etib, ular chehrasiga quvonch hadya etishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

YURT KELAJAGI – YOSHLAR QO'LIDA

Navqiron shahrimizda joylashgan «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazida yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

Tadbirida markaz tarbiyalanuvchilari bichish-tikish, dizayn, yumshoq o'yinchoq, munchoqli bezak, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi va tasviriy san'at kabi yo'nalishlarda mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi. Maktabimizning 8-«A» sinf o'quvchisi Gulnora Jo'rayevaning liboslar dizaynini yaratish bo'yicha ijodiy ishi hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholanib, viloyat miqyosida faxrli 2-o'ringa munosib topildi.

Rayhona ERKINJONOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

KELING, CHOY ICHAMIZ!

Xalqimizning eng sevimli ichimligi hech shubhasiz choydir. Yurtimizda biror-bir xonadon yo'qki, kundalik turmushida bu ne'matdan bahramand bo'lmasa. Aniqlanishicha, O'zbekiston aholisining 99,6 foizi choyni qahvadan ortiq ko'rar ekan.



Chunki bu ne'mat asabni tinchlantiradi, qon bosimini mo'tadil ushlab, bosh og'rig'ini qoldirishga yordam beradi.

Choyni ovqat yegandan 1 soat keyin ichish maqsadga muvofiq. Shuningdek, dori vositalarini faqat qaynatib sovitilgan suv bilan ichish darkor. Aks holda, choy malhamning ta'sir kuchini pasaytirib yuboradi.

Shohrux USMONOV,

Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
«Yoshlar ijtimoiy xizmatlari» markazi o'quvchisi

BIZ BAXTIYOR AVLODMIZ

Ushbu so'zlar poytaxtimizda o'tkazilgan «Biz - buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostidagi yoshlar festivalida yanada jarangladi.

Yoshlarni ezgu maqsad yo'lidagi birlashtirgan mazkur festivalda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar, Vatani tinchligi va farovonligi, umuminsoniy qadriyatlariga yo'g'rilgan yirik loyihalar amalga oshirildi.

Jumladan, Chilonzor tumanidagi 22-Mehribonlik uyida bo'lib o'tgan «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin» loyihasi doirasida bolajonlar san'atkorlar bilan ko'rishib, dildan suhbatlashgan bo'lsa, Bobur nomi-dagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan tadbir «Yoshlar jonli ijro tarafdori» deb nomlandi. Unda taniqli xonandalar tomonidan jonli ijroda kuylangan qo'shiqlar atrofdagilarga bir olam zavq ulashdi.

- Muhtaram Prezidentimiz ta'kid-



laganlaridek, sog'lom, ilmiy va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq, albatta, o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Bugun biz yoshlar buyuk yurt farzandlari ekanligimizdan faxrlanib yashaymiz. Hech kimdan kam bo'lmasdan, hamisha olg'a intilib, yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan

yetuk mutaxassis yoshlar safida bo'lishga harakat qilamiz, - deydi «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi g'olibi, Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi Madina Qurbonova.

«Kamolot» YOIH hamda qator vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan «Biz buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostidagi festival «Turkiston» saroyining yozgi maydonida kuy-qo'shiqlarga ulanib ketdi.



ZUBAYDA olgan suratlar

TA'TILDA TIL O'RGANAMIZ

F. ADILOVA

O'quv yili yakunlanib, yozgi ta'til boshlanganiga ham ancha bo'ldi. Sog'lomlashtirish va kunduzgi oromgohlar bolajonlar bilan gavjum.

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 228-umumta'lim maktabi o'quvchilari ta'til davrida ham xorijiy tillarni o'rganishni kanda qilmayapti. Chunki maktabda ingliz tili o'qituvchisi Gavhar Ergasheva tomonidan to'garak tashkil qilingan bo'lib,

bolalar chet tilini o'zlashtirmoqdalar. Mashg'ulotlar o'quv yili dars soatlaridan butkul farq qilib, har bir saboq qiziqarli o'yinlar bilan boyitilgan. Endi o'quvchilar «Yozgi oromgoh», «Ta'tildagi sayohat», «Anhordagi voqea», «Tabiat qo'yniga sayr» kabi amaliy mashg'ulotlarda ta'til sarguzashtlarini ingliz tilida bemaol so'zlab bera olishadi.



(Davomi. Boshi 1-betda)

Shuhrat ASQAROV:

– Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisiman. «Bilimlar bellashuvi»da tarix fani bo'yicha o'z bilimlarimni sinovdan o'tkazyapman. Uygay qaytgach, olgan taassurotlarimni do'stlaringa so'zlab beraman.



Hilola

HAKIMOVA: – Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisiman. Huquqshunoslik fanini puxta egallab, insonlarning haq-huquqlarini himoya qiladigan qonun himoyachisi bo'lish niyatidaman. Buning uchun, albatta, bilimimni oshirib borishim muhim, deb hisoblayman. Bu borada «Bilimlar bellashuvi»da olgan bilimlarim asqotadi.



ZAKOVATLI YOSHLAR

YURT TAYANCHI

Aytish mumkinki, mazkur bellashuv iqtidorli o'quvchilarni aniqlash hamda ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga keng yo'l ochib bermoqda.

«Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichi ishtirokchilari Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» intellektual-rivojlantirish oromgohida dam oladilar.

Vatanimiz Mustaqilligining 25 yilligini «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida nishonlashga tayyorgarlik boshlab yuborilgan mana shunday ulug' kunlarda yoshlarimiz bilimi, ma'naviy kamoloti bilan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklarga munosib javob berishmoqda.

G'oilblarni taniqli akademik olimlar, mamlakatimizning yetakchi fan arboblari taqdirlaydilar.

Ustoz so'z soiraydi

Foziljon ASQAROV,

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 20-umumta'lim maktabining tarix va huquq fani o'qituvchisi, hakamlar hay'ati a'zosi:

– Tarix fanidan dars berayotganimga 28 yil bo'ldi. 2015-yili respublika bosqichida o'quvchim Muharramoy Ibrohimova faxrii 3-o'rinni egallagan. Bu yil bellashuvlarga hakamlar hay'ati a'zosi sifatida tashrif buyurdim. Eng qvonarlisi, «Bilimlar bellashuvi»da jamoa hisobida viloyatimiz 2 yildan buyon birinchilikni qo'ldan bermay kelyapti. Bu esa pedagog-kadrlarning ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratib, o'z ustida tinmay izlanayotganliklaridan dalolat beradi.

Gazetani sahifalash jarayonida Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 15-umumta'lim maktabi o'quvchisi **Nargiza ERGASHEVA** geografiya fanidan 1-o'rinni egallagan ma'lum bo'ldi. Nargizani tabriklaymiz!



Durdona TO'RAMURODOVA:

– Men Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 21-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisiman. Iqtisodiy bilim asoslari fanidan o'z kuchimga ishonaman. Ustozim Sayyora Bo'ronova ishonchini, albatta, oqlayman.



Madina SAHOBOVA: – Jizzax shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisiman. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari fani bo'yicha bellashuvlarning maktab, tuman va viloyat bosqichida faxrii o'rinni egallab, respublika bosqichiga yetib keldim. Erishgan muvaffaqiyatlarim uchun ustozim Umid Mahkamovdan minnatdorman.

N. NAZAROVA, J. ABDULLAYEV



SHODLIGING OLAMNI TUTSIN, BOLAJON!

Yaqinda vodiya qilgan navbatdagi safarimiz chog'i hamrohlarimdan biri «Sho'rqishloqda bir oilani ko'rib o'tmasam bo'lmaydi. Har safar bu yoqqa yo'lim tushsa, hayotdan erta ko'z yumgan kursdoshim Hafizaxonning oilasidan xabar olishga harakat qilaman», deya meni ham birga borishga taklif etdi.

Hafizaxonning ota-onasi bizni ko'zlarida yosh, quvonch bilan kutib olishdi. Suhbatlashib o'tirganimizda hovliga uch nafar bola kirib keldi. «Avazmuhammad bilan Xudoyorxon Hafizaxonning, Xondamir esa kichik o'g'lim Mirzohidning farzandi», deya kirib kelgan bolakaylarni tanishtirdi Munavvar aya.



bu boradagi bilimlarini sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Ajoyib jihati, dunyo futbol yulduzlari Lionel Messi va Krishtianu Ronaldo bilan birga, o'zimizning Odil Ahmedov, Server Jeparov, Temur Kapadze, Jasur Hasanov kabi o'yinchilar nomini tilga olganda, bolakaylarning ko'zlari g'ururdan chaq nab ketganini ko'rib, zavqim yanada oshdi.

– Sport bilan shug'ullanishning foydasi katta, – deydi Xondamir. – Jamoadagi do'stlar bilan birlashib, ahillikda harakat qilishga, sabr-bar-doshli bo'lishga o'rgatadi.

Har safar yo'li tushganda, bu xonadonga kirib, ularga mehr ulashib, diydorlashib ketadigan hamrohingim ishidan xursand bo'ldim.

Nodira NAZAROVA

BOBOSIGA TORTGAN NABIRA

Poytaxtimizning Mirobod tumani madaniyat va aholi dam olish uyi qoshida ochilgan doira to'garagi a'zolarining aksariyati Yashnobod tumanidagi 215-umumta'lim maktabi o'quvchilardir.



8-«A» sinf o'quvchilaridan Kamronbek, Bahodir va Umid har kuni darsdan so'ng to'garakka oshiqadi. Aslida mashg'ulotlarga qatnashish taklifi Kamronbekdan chiqqan. Endilikda shogirdlar ustoz Dilmurod akadan «Qo'qoncha», «Tanavor» kuylarini chalishni o'zlashtirib olishdi.

– San'atga ixlosmandlik qonimizda bor. Otam Davlat Jo'rayev asli kasbi agronom bo'lsa-da, doira va dutorni maromiga yetkazib chalgan. Nabiram katta bobosiga o'xshadi, – deydi Kamronbekning bobosi Nazirjon ota.

– Uyimizda yosh sozandalarning mashq qilishlari uchun sharoit yaratib berdik. Ularni ko'rganda bolaligim yodingma tushadi. Har bir fanni a'lo baholarga o'zlashtirgan Kamronbek Usmonov yaxshi xulqi bilan barchaga o'rnak. Biz yosh sozandaning orzulari ushali shiga tilak-doshmiz.

Xurshida SULAYMONOVA

Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 14-bolalar musiqa va san'at maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Dilnoza Ro'ziboyeva san'at olamiga dadil qadamlar bilan kirib kelgan iqtidor egalariidan biridir.

DILNOZANING KO'RGAZMASI



Dilnoza Xovos tumanidagi 14-umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga borgach, tasviriy san'at o'qituvchisi Xursanoy opa Isomovadan rasm chizishning ilk saboqlarni ola boshladi. Shuningdek, eng mashhur rassomlar ijodi bilan ham yaqindan tanisha bordi. Ayniqsa, O'zbekistonning taniqli rassomlari Ortiqali Qozoqov va Akmal Nur ijodi uni o'ziga maftun etar, ular bilan hamsuhbat bo'lish, shogird sifatida o'g'itlarini olish katta orzularidan biriga aylandi.

Yaqinda u o'zining «Bahor nafasi» deb nomlangan ilk rasmlar ko'rgazmasini tashkil etdi.

– Ko'rgazmada shogirdimning bir qacha ishlari, jumladan, yurtimiz fasllari aks etgan rasmlar, natyurmort, «Qizcha va olmalar»,



«Ayol timsoli», «Otlar» nomli ijodiy ishlari namoyish etildi, – deydi bu haqda uning ustoz Ruxsora opa Murodova. – Ushbu ko'rgazmani tashkillashtirishda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Malika Narzullayevaning xizmati katta bo'ldi.

Dilnoza tasviriy san'at bilan birga amaliy san'atni ham qo'shib olib boradi. Tumandagi «Barkamol avlod» markazida munchoqli bezak hamda to'qish sirlarini o'rganib kelmoqda.

Maqolaga yakun yasas ekanmiz, yosh rassom qizimizning kelajagi yorug' bo'lishini, tasviriy san'at sohasida yuqori cho'qqilarga erishishini chin dildan istab qolamiz.

Dilorom HOTAMOVA

TO'GARAKDA ISH QIZG'IN

Turfa obrazdagi qo'g'irchoqlarning betakror harakati tomoshabinni bee'tibor qoldirmaydi. «Zunrad va Qimmat», «Oltin tarvuz», «Sholg'om» ertaklari qahramonlarini qo'g'irchoqlar ijrosida ko'rganingiz-da, o'zingizni beixtiyor ertaklar olamiga tushib qolgandek his qilasisiz.

Qo'g'irchoq teatri aktyori, qo'g'irchoqboz, hozirda Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi murabbiyi O'rinboy Ibragimov ko'p yillardan beri markazda tashkil etilgan «Qo'g'irchoq aktyorligi» to'garagini boshqarib keladi. Tumandagi 10-, 45-, 61-, 65-umumta'lim maktablari o'quvchilaridan tashkil topgan to'garak a'zolari ustoz rahbarligida chiqindi qog'oz, mato qoldiqlari va iste'molga yaroqsiz undan qo'g'irchoqlar yasashmoqda. O'z qo'llari ila yaratgan san'at asarida teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkillashtirish qanchalar maroqli ekanligini ular yaxshi bilishadi. Yosh qo'g'irchoqbozlardan 6-«B» sinf o'quvchisi Fazilat Jumaniyozova va 5-«A» sinf o'quvchisi Ravshan Xurshidov «Bar-moq qo'g'irchoqi» yo'nalishida faol ijod qilayotgan yoshlardan sanaladi.

Hayotining 25 yilida Buxoro, Xorazm va Toshkent qo'g'irchoq teatrlarida yuzlab obrazlar yaratgan aktyor, 7 yil san'at institutida talabalarga mazkur yo'nalishda saboq berdi. Ustoz ta'til davrida to'garak faoliyatini yanada kengaytirdi. Yangiyo'lga yo'lingiz tushguday bo'lsa, markazga kirib o'tish yodingizdan chiqmasin.



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

Nurbek QIDIRALIYEV



ONAJONIM

Gul-u rayhon sarasi,
Ko'zim oq-u qorasi.
Farishta misol inson
Duogo'yim, onajon!

Mehrga kon ko'zingiz,
Hikmat aytar so'zingiz.
Baxtinga bo'ling omon
Ko'zmunchog'im, onajon!

Orzum yuksakka yelar,
Sizga o'xshagim kelar.
Baralla aytay shu on:
Boyligimsiz, onajon!

Bo'lsangiz gar yonimda,
G'am-tashvish yo'q dilimda.
Qalbda shamchiroq mudom
Buyuk baxtim, onajon!

Hilola ABDUXALILOVA,
Farg'ona viloyati, Quva
tumanidagi 46-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

OGOHO BO'L

Jaholat – johillik ummoni asli,
Qarang, qayerdadir uning tub nasli.
Osuda hayotni o'tga alishmang,
Xazonga aylangay uning har fasli.

Ma'rifat yog'duli so'nmas quyoshdir,
Cho'qqidagi zarhal va gavhar toshdir.
Yorug' kelajakni barpo etishda –
U bizdek yoshlarga sodiq yo'ldoshdir.

Ezgu bo'lsin qalblardagi tilaklar,
Bilim bizni jaholatdan sergaklar.
Shunday yurti yashnataylik biz yoshlar,
Ma'rifat deb ursin doim yuraklar.

Munisa JUMAQULOVA,
Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi
21-umumta'lim maktabi o'quvchisi



AHILLIKDA HIKMAT KO'P

(Ertak)

mahrum qilishni buyuribdi.

Shunday qilib, gilam o'z xislatlaridan ayrilibdi. Endi u hech qaysi buyum bilan suhbatlasha olmas, nafaqat gaplashish, balki suzish va uchishni ham eplay olmasdi. Buyumlarining ahillikda ish qilishini ko'rib, uning xo'rliigi kelardi. Quvonch-u alamlarini birga baham ko'ruvchi yaqini yo'qligidan o'kinardi. Giam hayotda

ahillikning

o'rni muhim va beqiyos ekanini tushunib yetibdi va xatosini tuzata boshlabdi. U har kuni qushlardan uchishni, baliqlardan suzishni, atrofdagilardan gaplashishni o'rganib boshlabdi, garchi bu vazifa mushkul bo'lsa ham tez orada buni uddalabdi. Bu orqali u yana barchaning mehrini qozonibdi.

E'zoza USMONXO'JAYEVA,
poytaxtimizning
Shayxontohur
tumanidagi
34-umumta'lim
maktabining 7-«V»
sinf o'quvchisi

Qadimda barcha buyumlar jonli bo'lgan ekan. Ya'ni, ular bir-biri bilan bemalol suhbatlashar, hatto baliqdek suzish-u lochin kabi uchishni ham bilishar ekan. Ular juda ahil bo'lib, faqat gilam hech kim bilan chiqisha olmas edi. Buning ustiga u o'ta yalqov ham edi. Barcha buyumlarning shohi sandiq, uning eng mohir sehrgari javon edi. Gilamning urishqov va dangasa ekanidan sandiqning ham xabari bor edi. Hamma oqsoqollar uni insofga, ahillikka, mehnatga chaqirishar, gilam esa ularning so'zini tinglashni ham istamasdi. Mahalla faxriylari – qalam va kitob o'zaro maslahatlashib, «Gilamni unga berilgan fazilatlaridan: uchishdan, gapirishdan, suzishdan mahrum qilamiz», degan qarorga kelishibdi. Bu gapni elchi sifatida likopcha sandiqqa yetkazibdi. Ularning fikri shohga ham ma'qul kelibdi va javonga gilamni fazilatlaridan



Shoir Turob NIYOZning «Men izlagan odam» deb nomlangan yangi she'riy to'plamini o'qib chiqsangiz, u izlagan inson kim ekanligini darrov bilib olasiz. Shuningdek, shoirning «Muhabbat osmoni», «Gulshan bog'lari», «Muhabbat gullari», «Ochiq yurak», «Ko'ngilga murojaat», «Ummon tomchilari» singari kitoblari ham nashr etilgan. Bundan tashqari, shoir she'rlari «Kamalak», «Yoshlar ovozi», «G'allaorol navolari» kabi to'plamlarda ham chop etilgan. Uning yuzga yaqin she'rlari qo'shiqlarga aylantirilib, taniqli xonandalar tomonidan ijro etib kelinmoqda.

MEN IZLAGAN ODAM

Yana biz uchrashdik, aziz kitobxon,
Bundan shodliklarim bo'ldi bir jahon.
Siz ham quvonsangiz zarracha agar,
Ishoning, qalbmida qolmaydi armon.



Kitob diydorlashuvga bo'lgan ana shunday intiqlik, she'riyat shaydolariga o'z kechinmalarini sherik qilishga chorlovchi to'rtlik bilan boshlanadi. She'rlar turli mavzularda bo'lib, ularda Vatan, xalq, Mustaqillik, ona tilimizning hayotimizda tutgan o'rni, ahamiyati ohorli misralar orqali aks ettiriladi. Shuningdek, shoirning eng yaqin insonlari – onasiga, otasiga bag'ishlangan turkum she'rlar ham munosib o'rin egallagan. Shoirning yangi she'riy tuhfasi aziz kitobxonlar e'tiborini qozonishi, shubhasiz.

HANDALAK



Bolalikka qaytarar meni,
Polizdagi yam-yashil palak.
Erkalayman boladay seni,
Mo'jazgina, xushbo'y handalak.

Handalakni bo'lish shart emas,
To'yib hidla, shu ham yetadi.
Bunday maza hech qayda bo'lmas,
G'uborlaring tarqab ketadi.

ONAMNING ALLALARI

Meni zumda uxlatgan,
Qondan jonimga o'tgan,
Qalbmida ildiz otgan –
Onamning allalari.

Yoqimli sabomidi,
Sehrlil navomidi,
Dardimga davomidi –
Onamning allalari?

Yig'lasam gar, ovutgan,
Yosh ko'nglimni xush etgan,
Ezgulikka esh etgan –
Onamning allalari.

Eslyman yosh paytlarim,
Yo'q edi g'am, dardlarim...
Yozgan qo'shiq – baytlarim –
Onamning allalari.

ISMI UZUN BO'LSA...

Bo'sh kunlaridan birida kubalik jahon chempioni Kapablanka mehmonxonaga qoq yarim tunda qaytadi.
– Kim u? – deb so'raydi eshik og'asi uyqusirab.
– Xose Raul Kapablanka-i-Grauspera, – ishonchliroq chiqishi uchun chempion ismini to'liq aytadi.
– Yaxshi, kiring, – deydi eshik og'a to'ng'illab, – faqat oxirgi sherigingiz eshikni mahkamroq yopib qo'ysin...



OLTINCHIDA O'QISA EDI

Shaxmat bo'yicha jahon eks-chempioni Mixail Talning o'yinidan qoniqmagan bir muxbir «Shunaqasiyam bo'ladimi? Oltinchi sinf o'quvchisi topa oladigan oddiy yurishni ko'ra olmadi-ya», deb yozadi. Tal bunga javoban shunday deydi: «O, agar men hozir oltinchi o'qiganimda edi, eng zo'r yurishni topgan bo'lardim!»

Rus tilidan Shodmon
OTABEK tarjimasida

MARYAMJONNING ORZUSI

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan biz yoshlarning har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib ulg'ayishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Men ta'lim olayotgan Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabida ham turli fan va sport to'garaklari tashkil etilgan. Maktabimiz o'quvchilari ko'plab sport musobaqalarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqdalar. Ular orasida Maryamjon Rajabovning salmoqli o'rni bor.

6-sinf o'quvchisi bo'lgan dugonam yoshligidan sportga mehr qo'ydi. Mana olti yildirki, u murabbiyi Alisher Qurbonovdan karatening shotokan turi sir-asrorlarini o'rganib kelmoqda. 2014-yilda u Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida 2-o'rinni egallagan bo'lsa, kuni kecha poytaxtimizda o'tkazilgan «Kamolot» kubogi musobaqasida ham 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Hozirda u Turkiya va Gretsiyada o'tkaziladigan musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rmoqda.

Sinfodoshim Maryamjon sport bilan shug'ullanish barobarida, a'lo baholariga o'qib, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, u ingliz tilini ham puxta o'rganmoqda. Negaki, chet davlatlarga borganda til bilishi asqotadi-da.

Kelajakda O'zbekistonimiz dovrug'ini butun olamga tanitib, jahon chempioni bo'lishni maqsad qilgan Maryamjonning barcha orzulari ushlishini tilaymiz.

Saodatxon KARIMBERDIYEVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



Barchamizga ma'lumki, poytaxtimizning «Paxtakor» jamoasi nafaqat qit'a, balki butun dunyoda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan klublarimizdan biridir.

«PAXTAKOR» – XALQARO TURNIR G'OLIBI



Ushbu klub, ayniqsa, yosh charm to'p ustalarini tarbiyalash, ular iqtidorini ro'yobga chiqarish, O'zbekiston terma jamoasiga munosib nomzodlarni yetkazib berish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. E'tiborlisi, bu qilingan sa'y-harakatlar natijasida yosh paxtakorchilar turli nufuzli xalqaro musobaqalarda ona Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib kelayotir. Kuni kecha jamoaning yosh tarbiyalanuvchilari navbatdagi nufuzli musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytib kelishdi.

Rossiyaning Kaluga shahrida yakunlangan 2002-yilda tavallud topgan futbolchilardan iborat jamoalar o'rtasidagi «Kaluga Junior Cup» xalqaro turnirida Dilshod Nuraliyev boshchiligidagi yosh paxtakorchilar munosib o'yin namoyish etib, barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Ikki durang va bir g'alaba bilan yarim finalga yetib kelgan jamoamiz ushbu bosqichda Rossiyaning «Krasnodar» jamoasini yirik 5:1 hisobida mag'lubiyatga uchratib, finalga yo'ldi.

Hal qiluvchi bahsda esa vakillarimiz Belorusning «Dinamo-Minsk» jamoasiga qarshi maydonda saf tortishdi. Ushbu o'yinda futbolchilarimiz raqiblarini 2:0 hisobi bilan taslim etib, turnir g'olibligini qo'lga kiritdi.

TAEKVANDOKCHILARIMIZ jahon chempionatida 72 ta medalni qo'lga kiritishdi

Yaqinda Italiyada taekvandoning ITF yo'nalishi bo'yicha navbatdagi jahon chempionati bo'lib o'tdi.



Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada atletlarimiz ham munosib ishtirok etib qaytishdi. Massogi va til yo'nalishlari bo'yicha tatamiga chiqqan sportchilarimiz turnirda 22 ta oltin, 16 ta kumush va 34 ta bronza medali jam'arib, yakunda umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni egalladi. Aytish mumkin, ushbu ajoyib g'alaba Mustaqilligimizning 25 yillik shodiyonasiga taekvando ustalarimizdan ajoyib sovg'a bo'ldi.

S.TURSINOV

Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari uchun joriy yil juda omadli keldi. Maskan sportchilari erishgan muvaffaqiyatlar ancha salmoqli.

KONIMEXLIK BOKSCHILAR MUVAFFAQIYATI



2016-yil 26–28-may kunlari Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan «Universiada – 2016» Respublika final bosqichida hozirda Navoiy DPIda ta'lim olayotgan sport maktabi o'quvchilari Jasur Urazbayev va Elyor Yaxshiboyev ishtirok etib, boks bo'yicha faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Birgina may oyining o'zida (4–7-may kunlari) Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli shahrida bo'lib o'tgan 2000–2001-, 2002–2003-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida boks bo'yicha sport ustalari Mels Quljanov va Orazbay Ub-biyevlarning xotirasiga bag'ishlangan XVI xalqaro turnirda sport maktabining besh nafar bokschilari qatnashib, 57 kg

vazn toifasida Umirzoq Achilov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Navoiy shahrida bo'lib o'tgan 2000–2001-, 2002–2003-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida boks bo'yicha hamda «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan «Sug'diyona» JTSJ ochiq birinchiligida o'n yetti nafar bokschilar ishtirok etib, shulardan N. Yermaxanov va N. Andakulovlar (murabbiyi Ilhom Yelibayev) 1-o'rinni egalladi. A. Nizomiddinov, I. To'ymurodov, B. Zoirov, A. Ayimbetov hamda N. Narbekovlar faxrli 2-o'rinni egalladilar. Ushbu sport maktabi tarbiyalanuvchilariga yanada omad yor bo'lishini tilab qolamiz.

M. ALIMOV



Salom, bolajonlar! Mana, yana sizlar bilan «Quvnoq ta'til» sahifasida ko'rishib turibmiz. Bilasizmi, o'quv yili davomida yaxshi o'qiganingiz-u namunali xulqingiz bilan ustozlardan ko'p maqtovlar eshitganingizdan xabarimiz bor. Ta'til kunlarida bo'sh vaqtlaringizni mazmunli o'tkazib, maroqli hordiq chiqarishni juda-juda istaysiz. Biz ham ayni shuni maqsad qilganmiz. «Quvnoq ta'til»da tengdoshlaringiz ijodidan bahramand bo'lib, turli ma'lumotlarga ham ega bo'lasiz.

YAPROQ KO'RINISHLI DENGIZ OTI

Avstraliya davlatining janubiy qismidagi dengizlarda yashovchi bu jonzor bir qaraganda dengiz otlariga juda o'xshab ketadi. Suvning iliq haroratiga moslashgan ushbu mavjudotning qanotlari xuddi yaproqlardek ko'rinadi va bu uni boshqa yirtqichlardan asrovchi niqob va suzgich vazifasini o'taydi. Asosan, mayda suv hasharotlari bilan oziqlanadigan dengiz oti 45 sm.gacha o'sishi mumkin.

G'AROYIBLIGINI QARANG...

Dunyoda g'aroyib mavjudotlar bisyor. Ularni tomosha qilib, ko'zlarimiz quvnaydi va tabiat mo'jizalariga yana bir bor tan beramiz. Bugun sizlarga dunyoning turli chekkasida yashayotgan jonzorlar haqida ma'lumot beramiz.

MUZQAYMOQ

Do'konga kirib Salim, Bitta muzqaymoq oldi. Uni yalab ko'r-di-yu, Tishlarin ushlab qoldi.

– Sovuq ekan muzqaymoq, Qarang, tishim og'ridi. Kechirasiz, bularni Issiqrog'i yo'qmidi?

Parizoda RO'ZIBOYEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 16-umumta'lim maktabi o'quvchisi

DAMBO OKTOPUS

Bu jonivorning nomi sizlarga mashhur multfilmidagi Damboning nomini eslatayotgan bo'lsa, ajabmas. Bu hayvonning quloqlari juda katta bo'lib, u orqali suv ostida bemalol harakatlana oladi.

UZUNTOVON

Maymunlar oilasiga mansub bo'lgan bu jonivorning boshi 360 darajaga bemalol burila oladi. Orqa panjalari juda uzun bo'lib, quloqlari yaxshi eshitadi. Tanasi kulrang yoki jigarrang tusdagi tuklar bilan qoplangan. Maymunchalarning bo'yi 9 sm.dan 16 sm.gacha bo'lsa-da, ko'zlarining diametri 16 millimetрни tashkil qiladi.

OZODA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Ushbu krossvordni yechish orqali yurtimizdagi shaharlarning nomini qay darajada bilishingizni sinab ko'ring.

YURTIMIZDAGI SHAHARLAR krossvordi

- Vodiydagi qadim shahar.
- Samarqand va Guliston o'rtasidagi shahar nomi.
- Sharif shaharlardan biri.
- Mamlakatimiz poytaxti.
- Shimoldagi shahar.
- Toshkent viloyatiga qo'shni shahar nomi.
- 2700 yillik tarixga ega shahar nomi.
- Janubdagi chegara shaharlardan biri.
- Oltin koni mavjud bo'lgan shahar nomi.
- Bobur tavallud topgan shahar nomi.



Tuzuvchi: Behruz NORMURODOV,
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi

OLCHALI SHIRINLIK

Pazanda qizgal

Kerakli masalliq: 200 gramm sariyog', 4 dona tuxum, 150 gramm shakar, 2 oshqoshiq qavartma, 2 stakan un.

Nachinkasiga: 500 gramm danagidan tozalangan olcha, 1 piyola tozalangan yong'oq.



Tayyorlanishi: dastavval, qirg'ichdan chiqarilgan sariyog' un bilan uqalanadi va qavartma qo'shiladi. Alohida idishda 4 dona tuxum oqi sarig'idan ajratilib, sarig'iga 50 gramm shakar bilan bir xil massa holiga kelgunga qadar aralashtiriladi. So'ngra ustiga sariyog' bilan uqalangan unni solib, yumshoq xamir qoriladi.

Xamirni tindirish uchun 30 daqiqa muzlatgichga qo'yiladi. Tuxum oqini 100 gramm shakar bilan yaxshilab ko'pirtiriladi. Tingan xamirni gaz patnisiga yoyib, o'rta olovda pishirib olinadi. Yarim tayyor pishgan shirinigimiz ustiga olcha va yong'oqni terib, ustidan tuxumli kremni surtib, yana gaz pechida past olovda usti qotguncha pishirib olinadi. Pishgan shirinigimiz ustiga shakar kukuni sepiladi.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 47026 Buyurtma - S 6272

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taxtda. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08